

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
KOMIL INSONNI SHAKLLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING
O‘RNI

Najmiddin Musinov- JDPI,
Falsafa, tarbiya va huquq
ta’limi kafedrası katta o‘qituvchisi
S. Atamuradova -JDPI,
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada «Qadriyat», jamiyat, millat va xalqlarning diniy e’tiqodi, marosim va an’analari milliy qadriyatlar barqarorlik, jamiyat, globallashuv, milliy g‘oya, mafkura rivoji va ahamiyati qonun oldidagi huquqiy tenglik va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari kabi tushunchalar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kamil inson, ma’naviy meros, marosim va an’analar, milliy qadriyatlar, jamiya, t qonunning ustunligi, demokratiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, axloq.

Har tomonlama etuk kamil insonni shakllantirishda milliy ma’naviy qadriyat tarbiyasining o‘rni o‘ziga xosdir. Ma’naviy qadriyat tushunchasi haqida so‘z yuritganimizda birinchi o‘rinda «qadriyat» so‘zining ma’nosini bilib olsak. Akseologiya so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib «aksios» - qadr, «logos» ta’limot, so‘z, tushuncha ma’nosini bildiradi. Faylasuf olim E. YUsupov taxriri ostidagi «Falsafa» o‘quv qo‘llanmasida qadriyatlar inson faoliyati, uning yo‘nalishi, umumiy ahamiyati xaqidagi nazariyalarni o‘rganuvchi falsafiy ta’limotdir, deyilgan. Eng oliy qadriyat bu inson, inson borligi, uning hayoti, yashashi eng asosiy masaladir. Inson hayot bo‘lsagina narsalar, tabiat, butun borliq, moddiy va ma’naviy qadriyat ahamiyatiga ega bo‘ladi. Uning ahamiyati faqat inson borligi asosida qadrlanadi. Umuminsoniy qadriyatlar bu insonga xos xususiyatdir, inson qadr-qimmat, axloqi, ma’naviyati, moddiy va ma’naviy madaniyatining insoniy lashgan tomoni bo‘lib, bularsiz qadriyatlar mavjud bo‘lmaydi.

Qadriyat shaxs, jamoat va jamiyat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan, ular uchun ahamiyati bo‘lgan ob’ektlardir. Birok, ob’ektlarning mavjudligi, xali qadriyat bo‘la olmaydi. Qadriyat bo‘lishi uchun, ob’ekt foyda keltirishi, ahamiyat kasb etishi kerak.

Qadriyatlar axloqiy qoida va me’yorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o‘zi ichiga oladi. Falsafa tarixida qadriyatlar muammosi nimalardan iborat ekanligi kitobda izoxlab berilgan.

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma’naviy boyliklari rivojining yakuni, inson kamolotining kelajagi uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy

Тарих ва Жамият илмий журнали

mahsulidir. Insonning *ob'ektiv* olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyati, *moddiy* va *ma'naviy muhit*, yashasha shart-sharoitlarining rivojlanishi vorislik asosida sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga, o'tmishdan *meros* bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj talablari asosida rivojlanishga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotining imkoniyatlari ham kengayadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har bir hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki *kelajak istiqboli* uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham *qadriyat* deb ataladi. Qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqitga ta'sir etish, imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr – mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma'naviy dunyosini boyitib, ularning ma'naviy kamolatiga xizmat qilib kelayotganidan faxrlanamiz.

“Ota–bobolarimiz bizga qoldirgan boy va rang – barang ma'naviy merosni, milliy qadriyatlarimizni asrab – avaylab, ularni zamonaviy ilm - fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir”¹

“Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz, - deydi I. A. Karimov, -jamiyatimiz a'zolarini, avvalombor, voyaga etib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr - sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir”.¹

Xech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, ilmiy qadriyatlarini asrab avaylab, saqlamasdan turib boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat – izzat bilan qaray olmaydi. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir.

Taniqli faylasuf olim V. P. Tugarinovning fikricha, “Qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir.

Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. SHuning

¹ Туленов Ж. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тарақиёт. – Т.: Ўзбекистон, 1999 йил 3 бет

¹ Каримов И. А. Хушёрликка даъват.- Т.: Ўзбекистон, 1999 йил 16 бет.

Тарих ва Жамият илмий журнали

uchun ham kishilar o‘z tasarrufidagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o‘zlari uchun maqsad yoki ideal bo‘lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o‘zidir, chunki hayotdan mahrum bo‘lish boshqa barcha qadriyatlardan foydalanishni yo‘qqa chiqaradi”.

Darhaqiqat, qadriyatlarning hayotdagi o‘rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Millat va xalqlarning diniy e‘tiqodi, marosim va an‘analari milliy qadriyatlar sifatida o‘zining asl hayotiy sifatini tiklab olmoqda.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu–umidlari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Demak, “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maqsadlariga hizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne‘matlari hodisalari majmui”ni tushunmog‘imiz lozim².

Mazkur ta‘rifdan ko‘rinib turganidek, qadriyatlar,

-birinchidan, voqelikda mavjud bo‘lgan tabiat va jamiyat ne‘matlari, hodisalarini ifodalaydi;

-ikkinchidan ularni qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu–umidlari bilan belgilanadi;

-uchinchidan tabiat va jamiyat ne‘matlari, hodisalarning qadriyatlar turkumiga kiritilishining asosiy sababi kishilar ularni qadrlaydilar avaylab – asraydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog‘liq rivshida yuzaga keladi.

“Qadriyat-voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy - ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy satsiolik va aksiologik tushuncha.

Jamiyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar:

erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma‘rifat, madaniyat, moddiy va ma‘naviy boyliklar, obida – yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an‘ana, urf – odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi.”¹

² Туленов Ж .Миллий қадриятлар ва ижтимоий тараққёт. – Т.: Ўзбекистон, 1999 йил 8 бет

Тарих ва Жамият илмий журнали

Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo'lib, avvalo ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, hatti – harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, hatti – harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylandi va aylanmoqda. Inson butun umri davomida son – sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi.

Barcha davlatlarda, jamiki ijtimoiy tuzumlarda inson eng oliy qadriyat hisoblanadi. Hamma narsani qiladigan oliy mavjudot – bu inson oliy hazratlaridir. Tarix ham tarixiy taraqqiyot ham inson faoliyatidan boshqa narsa emas. Milliy qadriyatning tiklanishi jamiyatimiz taraqqiyoti va inson shaxsining madaniy ma'naviy, ahloqiy rivojlanish, kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalash voyaga etkazishda keng istiqbol yo'lini ochib beradi.

O'zbekiston davlati qadriyatlarning jamiyat va xalq hayotida tutgan o'rni beqiyos ekanini e'tiborga olib, uni tiklash, yanada rivojlantirish va takomillashtirishning, undan xalqimizni bahramand qilishning yaqin va uzoq yillarga mo'ljallangan rejalarini ishlab chiqdi.

Qadriyatlar xalqimizning tengsiz boyligidir. Uni avaylab – asrash, rivojlantirish, boyitish muqaddas burchimizdir.

SHuning uchun ham bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada madaniyat va san'atda nimaiki, yangi va ilg'or jihatlari bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or iqtidorli va eng muhimi insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etilyapti.

“Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy – ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf – odatlari, an'alarini, jamiki moddiy va man'aviy boyliklarni, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy hayotining barcha tamonlarini qamrab oladi”³

Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan bir millatning hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, urf – odatlari, tili uning o'tmishi, kelajagi bilan uzviy bog'liqdir.

Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi.

³ Фалсафа қисқача изоқли лўғат. Т.: Шарқ, 2004 йил 372 бет

Тарих ва Жамият илмий журнали

Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni angilashini tasavvur qilish qiyin.

Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his – tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir.

Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr – qimmatini saqlash o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Har bir millatda ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Millatlarning o'zligini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.